FARG‘ONA VILOYATI QUVA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 29-oktabr | 260-11-156-Q/24 | Quva tuman hokimligi

Quva tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasiga va “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunining 14, 43-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.12.2017-y., 09/17/965/0393-son) asosan tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish joylarini eng kam miqdorini ajratish, qo‘shimcha ish joylari yaratish ularni muhofaza qilish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi **1-ilovaga** hamda 2025-yilda Quva tumani bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni korxona tashkilotlar bo‘yicha ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar toifalari bo‘yicha quyidagi umumiy tartiblarga asoslanishi shart:

yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va 14 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun-bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni

uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lganlar uchun 22 ta ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlari, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta‘lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta‘lim olgan bitiruvchilariga muvofiq bo‘lganlar uchun 217 ta ish o‘rinlari;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatidan bo‘shatilgan shaxslar uchun 61 ta ish o‘rinlari;

nogironlar uchun–mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda hamda nogironlardan ishga joylashish kam bo‘lganda kam qolgan ish o‘rni ta’lim muassasini tugatgan yoshlar uchun band qilinsin) beradiganlar uchun 118 ta ish o‘rinlari;

tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun mahsus malakani talab qilmaydigan uchun 8 ta ish o‘rinlari ;

jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun–ularni kasb bo‘yicha tayyorgarligini hisobga olgan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa maxsus malakani talab qilmaydigan uchun 20 ta ish o‘rinlari.

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifasiga ega shaxslar uchun - 7 ta ish o‘rinlari.

odam savdosidan jabrlanganlar shaxslar uchun - ularning kasbi bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lganlar uchun 1 ta ish o‘rinlari.

Jami 454 ta ish o‘rinlari.

3. Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi“Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlar tashkil etilishini ta’minlash;

korxona va tashkilotlar, yil boshlangungacha 10 kundan kechikmay band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 foiz hajmida ish o‘rinlari band qilib qo‘yilishini va tayyor bo‘lishini ta’minlasin hamda bu to‘g‘risida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yil boshlangunga qadar axborot bersin.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini qolgan qismini band qilib qo‘yish tashkilotlar (ish beruvchilar) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu to‘g‘risida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tugagandan keyin 10 kundan kechikmay axborot berish vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu qaror bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha tegishli Qarorini bajarmaganlik uchun jarima to‘laganligi tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etish majburiyatidan ozod qilmaydi.

5.O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019 yil 10 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B sonli buyrug‘iga (Adliya Vazirligidan 2019 yil 31 martda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami №3163) muvofiq, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam ish o‘rnidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - rejadan ortiq qabul qilingan har bir hodim uchun 12

oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi inobatga olinsin.

6. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (A.Anvarov) besh kun muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta‘minlasin.

7. Belgilansinki, ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Zakirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Umarov**

Quva tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
260-11-156-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi

№	F.I.SH.	Lavozimi
1	J.Zakirov	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, ***komissiya raisi***
2	A.Anvarov	Kambag’allikni qisqarturish va bandlikka ko‘maklashish bo’limi boshlig’i, ***komissiya mas’ul kotibi***
3	Komissiya a’zolari:	
4	D.Raxmonov	Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
5	A.Xudoyberdiev	Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
6	M.Mamajonov	Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi shahar bo‘limi boshlig‘i
7	A.Abdurazzoqov	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
8	A.Yakubov	"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari

Izoh: komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.

Quva tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
260-11-156-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Quva tumanidagi tashkilotlar bo‘yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobat qila olmaydigan shaxslarga 2025 yil uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risida

TAKLIFLAR

№	Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar soni	Korxona STIRI	umumiy ishlovchi soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:							
					o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalar soni	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlari va «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchini tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar soni	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar soni	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar soni	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifasiga	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni
A	1		2	3	4		5	6	7	8	10	11
1	Quva tuman kasb xunar maktabi	200171424	128	8	1	3	0	3	0	1	0	0
2	Quva tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi	200171874	92	5	0	0	0	0	0	5	0	0
3	Quva tuman irrigatsiya bo`limi	305080658	107	4	0	0	2	0	0	2	0	0
4	Quva tuman Madaniyat bo`limi-tuman madaniyat va aholi dam olish markazi	200171978	61	4		2	1	1				

5	Quva tumani Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazi	200171939	126	8	1	1		3		2	1	
6	Quva tumani obodonlashtirish boshqarmasi	206041042	551	20	10	0		0	2	5	2	1
7	Quva tumani tibbiyot birlashmasi	200171788	3663	54	5	25	5	10	2	5	2	
8	VILOYAT "ONA-BOLA" reablitatsiya shifoxonasi	203590859	187	11	2	2	0	5	0	0	2	0
9	QUVA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI BO`LIMI	200173674	83	3		2		1				
10	1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203234627	235	4		2	1	1				
11	2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203238558	187	3		2	0	1				
12	3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203270837	80	3		2		1				
13	5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	204431452	161	3		2		1				
15	8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206913357	102	3		2		1				
16	9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203218273	143	3		2		1				
18	11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203225424	98	3		2		1				
19	12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203330358	107	3		2		1				
20	13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203225448	122	3		2		1				
21	14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203273967	107	3		2		1				

22	15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203238565	92	3		2		1				
23	16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203493661	78	4	1	2		1				
24	17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203296487	105	4		2	0	1	1			
25	18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203234642	89	3		2		1				
26	20-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203294996	77	4		2	1	1				
27	22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203268537	79	4		2	1	1				
28	23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203298215	80	4		2	1	1				
29	24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203238573	88	5	0	2	1	1	1			
30	25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203234634	76	4	1	2	0	1				
31	26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206913372	159	3	0	2	0	1				
32	27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203273974	77	3		2		1				
33	28-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203285611	118	3		2		1				
34	29-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203273982	79	3		2		1				
35	32-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203228253	124	4		2	1	1				
36	33-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203317070	108	4		2	1	1				

37	34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203300892	68	3		1	0	1	1			
38	35-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203280262	89	4		2	1	1				
39	36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206913404	57	4		2	1	1				
40	37-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203253334	87	4		2	1	1				
41	38-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206913412	65	4		2	1	1				
42	39-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203265010	109	4		2	1	1				
43	40-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203230348	87	4		2	1	1				
44	41-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203307534	67	3		1	1	1				
45	42-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203268552	77	4		2	1	1				
46	44-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203230324	101	5		2	1	1	1		0	
47	46-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203236196	85	4		2	1	1				
48	47-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206913444	67	3		1	1	1				
49	48-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203354984	70	3		1	1	1				
50	49-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203238541	117	4		2	1	1				
51	50-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206913451	65	4		2	1	1				

52	51-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203280254	79	4		2	1	1					
53	52-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206913468	58	4		2	1	1					
55	56-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206913508	118	4		2	1	1					
56	57-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206913515	60	4		2	1	1					
57	58-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203225431	88	4		2	1	1					
58	59-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203319037	59	4		2	1	1					
59	60-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203228260	124	4		2	1	1					
60	61-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	204431469	60	4		2	1	1					
61	62-Ixtisoslashtirilgan Umumta'lim Maktab-Internati	206913523	123	4		2	1	1					
62	64-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206913547	101	4		2	1	1					
63	66-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	306738706	66	3		1	1	1					
64	13-BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI	302655171	74	4		2	1	1					
65	19-BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI	302654846	64	4		2	1	1					
66	FARG`ONA VILOYATI QUVA TUMANI BARKAMOL AVLOD BOLALAR MARKAZI	207127044	89	4		2	1	1					
67	QUVA TUMAN BOLALAR-O'SMIRLAR SPORT MAKTABI	303849024	178	4		2	1	1					

68	1-maktabgacha ta’lim muassasasi	207010128	118	4		2	1	1				
69	2-maktabgacha ta’lim muassasasi	207058684	72	4		2	1	1				
70	3-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035894	92	4		2	1	1				
72	5-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035870	99	4		2	1	1				
73	6-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035863	87	4		2	1	1				
74	7-maktabgacha ta’lim muassasasi	305550713	57	3		2		1				
75	8-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035855	77	4		2	1	1				
76	10-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035903	97	4		2	1	1				
77	11-maktabgacha ta’lim muassasasi	207058709	76	3		2		1				
78	12-maktabgacha ta’lim muassasasi	207010135	88	4		2	1	1				
79	13-maktabgacha ta’lim muassasasi	207010143	95	4		2	1	1				
80	14-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035848	79	4		2	1	1				
81	15-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035064	61	4		2	1	1				
82	17-maktabgacha ta’lim muassasasi	305808262	74	4		2	1	1				
83	18-maktabgacha ta’lim muassasasi	207077835	62	4		2	1	1				

84	21-maktabgacha ta’lim muassasasi	207077653	64	3		1	1	1				
85	22-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035831	70	3		1	1	1				
86	23-maktabgacha ta’lim muassasasi	207010150	81	3		2	0	1				
87	24-maktabgacha ta’lim muassasasi	207056576	60	4		2	1	1				
88	25-maktabgacha ta’lim muassasasi	207058716	99	4		2	1	1				
90	27-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035824	73	3		2		1				
91	28-maktabgacha ta’lim muassasasi	207058637	96	3		2		1				
92	29-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035056	77	3		2		1				
93	30-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035816	66	3		2		1				
94	31-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035809	97	3		2		1				
95	32-maktabgacha ta’lim muassasasi	207010167	94	3		2		1				
96	34-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035791	95	3		2	0	1				
97	36-maktabgacha ta’lim muassasasi	207010174	80	3		2	0	1				
98	38-maktabgacha ta’lim muassasasi	207010182	81	3		2		1				
99	40-maktabgacha ta’lim muassasasi	207010199	111	3		2		1				

100	41-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035776	108	3		2		1				
104	46-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035752	76	3		2		1				
105	47-maktabgacha ta’lim muassasasi	207035887	106	3		2		1				
106	48-maktabgacha ta’lim muassasasi	207320264	129	3		2		1				
108	51-maktabgacha ta’lim muassasasi	207077431	66	3		2		1				
109	52-maktabgacha ta’lim muassasasi	207077850	57	3		2		1				
110	54-maktabgacha ta’lim muassasasi	207078192	75	3		2		1				
111	58-maktabgacha ta’lim muassasasi	308635778	67	3	1	1		1				
112	59-maktabgacha ta’lim muassasasi	308644545	88	3		2		1				
113	60-maktabgacha ta’lim muassasasi	309215397	66	3		2		1				
	jami		13639	454	22	217	61	118	8	20	7	1